



**OMMAVIY TARTIBSIZLIKLARNI BARTARAF ETISHGA JALB
QILINADIGAN BO‘LINMALARNI JISMONIY VA RUXIY
TAYYORLASHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNING
YECHIMLARI**

Sunnatov Umid Taxirovich

*O‘zbekiston Respublikasi Jamoat
xavfsizligi universiteti Jamoat
xavfsizligini ta’minlash kafedrası katta
o‘qituvchisi, podpolkovnik*

**Mamatxanov Nodirxon
Sadridin o‘g‘li**

*O‘zbekiston Respublikasi Milliy
gvardiyasi Jamoat tartibini saqlashni
tashkil etish boshqarmasi katta ofitseri,
mayor*

Annotatsiya: Ushbu maqola ommaviy tartibsizliklar yuzaga kelgan davrida ularni bartaraf etuvchi harbiy xizmatchi va xodimlarni jismoniy va ruxiy tayyorgarligidagi mavjud muammolarni aniqlash, ularni bartaraf etishga qaratilgan. Maqolada horijiy davlatlarda yuzaga kelgan ommaviy tartibsizliklar, ularni bartaraf etishda kuzatilgan muammolarga va harbiy xizmatchilarni jismoniy va ruxiy tayyorgarliklarini o‘rganish bo‘yicha horijiy va sobiq ittifoq olimlarining fikrlariga asoslangan.

Kalit so‘zlar: Ommaviy tartibsizlik, Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish, harbiy xizmatchi (xodim)ning jismoniy va ruxiy xolati.

Xozirgi taxlikali dunyoda, turli mamlakatlarda yuzaga kelayotgan vaziyatlar har birimizni xushyor va ogoh bo‘lishimizni talab etadi. Chunki halqaro xamjamiyatda yuz berayotgan jarayonlar, o‘z manfaatlarini ko‘zlab o‘zaro nizolashayotgan qudratli mamlakatlarning tashqi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy vaziyatlarga bo‘lgan tasiri kattaligi bilan axamiyatli xisoblanadi. Qudratli davlatlarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tasiri ostida qolgan ko‘plab mamlakatlarda irqiy, diniy, iqtisodiy, ijtimoiy kelishmovchiliklarni kelib chiqishi, halqning o‘z mamlakatida olib borilayotgan siyosatga bo‘lgan ishonchsizlik kayfiyatini uyg‘onishi yoki chetdan aralashuvlar natijasida ommaviy tartibsizliklarni kelib chiqqanligi tarixdan hammamizga ma’lum.

Sodir etildgan ommaviy tartibsizliklarning kelib chiqish sabablari, yuzaga kelgan holati, joyi, olamon tarkibi, uning miqdori va ular tomonidan ilgari surilayotgan vaj hamda maqsadi turlicha bo‘lganligi sababli, har bir yuzaga kelgan ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish usullari ham o‘ziga xos ekanligi bilan etiborli.

O‘z navbatida, bunday holat davlat boshqaruv hamda huquqni muhofaza



etish organlariga bir qator kutilmagan vaziyatlarga tayyor bo'lishlarini talab etadi.

Shuning uchun ham huquqni muxofaza etish organlari, kuchga ega tizimlarning shaxsiy tarkibi, har tamonlama yuklatilgan vazifalarni bajarishga tayyor xolatda bo'lishlari lozim.

Xar tomonlama tayyorgarlik tushunchasi - har bir harbiy xizmatchi (xodimi)mizni aqliy, kasbiy, jismoniy, ruxiy, moddiy hamda zaruriy vositalar bilan ta'minlanganlik darajasidir. Boshqaruv organlarining bunday vaziyatlarda kuch va vositalarini boshqaruvi hamda hamkorligini ta'minlash salohiyatini yuqori darajadaliqidan iboratdir.

Bu borada, Mamlakatimiz Prezidenta Shavkat Mirziyoev 2018 yil 10 yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 26 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan xavfsizlik kengashining yig'ilishida "Men xarbiy xizmatchilarimizning jismonan va ruxiy tayyorgarligi bilan bog'liq bir qator muammolarga e'tibor qaratmoqchiman. Nega deganda, jismoniy tayyorgarlik harbiy xizmatchilar uchun xizmat faoliyatida, harbiy karerasida va umuman, turmush tarzida xal qiluvchi omillardan biri bo'lishi zarur. Harbiy xizmatchilarning ruxiy jixatdan chidamligi bo'lishi xaqida gapirganda, keyingi paytda dunyoning turli mintaqalarida sodir bo'layotgan qurolli to'qnashuvlarda ko'zga tashlanayotgan bir xolatga e'tiboringizni qaratmokchiman. Ya'ni, jangovar harakatlar davomida shaxsiy tarkib o'rtasidagi yo'qotishlarning asosiy qismi kuchli ruxiy ta'sir va zarbalar bilan bog'liq ekani ma'lum bo'lmoqda. Bunday ruxiy jaroxatlarni xatto tinch sharoitda ham davolash juda murakkab masaladir" [1] -deb takidlab o'tganlari bejizga emas.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasining huquqni muxofaza etish organlari shu jumladan Milliy gvardiya shaxsiy tarkibi kunlik yuklatilgan vazifalarni bajarishi bilan bir qatorda, favqulodda kutilmagan vaziyatlarda to'g'ri harakat qilish uchun ham jismoniy va ham ruxiy jixatdan tayyorgarliklari mukammal bo'lmog'i lozim.

Shunday ekan, Milliy gvardiyaning barcha bo'linmalarida shaxsiy tarkibni jismoniy tayyorgarligini oshirish borasida kun tartibi va o'quv dasturlarida belgilangan darsliklarning o'zi kifoya qilmaydi.

Harbiy xizmatchilarimizning ongiga, o'zinnig hayotiy sog'lom turmush tarzi sifatida jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida olgan bilim va ko'nikmalarini singdirib borishi kerakligini tushuntirishimiz lozim.

Ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish yuzasidan belgilangan topshiriq hamda maxsus vazifalarni bajarish uchun jismoniy kuchli bo'lish bilan bir vaqtning o'zida teran fikirlaydigan va ruxiy jixatdan tayyor bo'lishi lozim.

Horijiy davlatlarda sodir etilgan ommaviy tartibsizliklar jarayonida



kuzatishimiz mumkinki, ko'plab holatlarda kutilmagan vaziyat yuzaga kelganda inson o'zini yo'qotib qo'yish holatlari, noto'g'ri qaror qabul qilishga, belgilangan tartib va qoidalarni lozim darajada bajara olmaslikka olib keladi.

Harbiy xizmatchi va xodimlarni bunday axvolga tushib qolish holatlari bo'yicha Rossiyalik olimlar jumladan Yermolova Yekaterina Olegovna, Shamshikova Olga Aleksanrovnalar o'zlarining "Vzaimosvyaz nervno-psixologicheskoy ustoychvosti i sklonnosti k otklonyayuo'emusya povedeniya u voennoslujao'ix kontraktnoy slujbq" [2] - deb nomlangan ilmiy maqolalarini tayyorlashda Rossiya Federatsiyasi Mudofaa vazirining buyrug'iga asosan, moto o'qchilar bo'linmalari shaxsiy tarkibi orasida o'rtacha yoshlari 29 yoshni tashkil etuvchi, xizmat muddatlari 2-14 yilgacha bo'lgan, 60 nafar harbiy xizmatchilarni o'rganib, tahlillar olib borishgan. O'rganishlar jarayonini tahlil qilishda 2 guruhga bo'lgan xolda amalga oshirishgan, 1-guruh ya'ni 30 nafar xaqiqiy jangovar harakatlarda ishtirok etgan va 2-guruh 30 nafar ishtirok etmagan harbiy xizmatchilar.

Natijalar shuni ko'rsatganki har ikkala guhlarda ham ruhiy, kasbiy tayyorgarlikning yuqoriligi o'z navbatida, asab tizimini mustaxkamlovchi omil sifatida, ya'ni, kutilmagan vaziyatlarda harakat qilish tartibini mustaxkam o'zlashtirgan harbiy xizmatchi asabiylashib, o'zini yo'qotib qo'ymasligi, oxirgi daqiqalarda ham refleks va instinktlar harakati bilan vaziyatdan chiqib ketish imkoniyati yuqoriligini ko'rsatib o'tilgan. Ruxiy jixatdan yaxshi tayyorlangan harbiy xizmatchilar asab tizimini tekshirish testlaridan kutilgandan ko'ra yaxshiroq natijalar ko'rsatgan.

Fikrimizcha, shaxsiy tarkibning ruxiy va jismoniy tayyorgarligini yuksaltirish uchun unga tasir etuvchi ko'plab omillarni aloxida-alohida hamda umumlashtirilgan holda o'rganib chiqishimiz lozim.

Jaxonda o'zining yuksak g'alabalari bilan yurtimiz bayrog'ini yuqori ko'tarayotgan sportchilarimiz uchun belgilangan kun tartibida, inson tanasi quvat beruvchi oziqlantiruvchi yemish miqdorini istemol qilinishini qat'iy nazorat qilish, sportchining jismoniy qobiliyatini o'rganib, jismoniy bosimni bosqichma-bosqich ko'tarib borish, organizmni o'z vaqtida dam olishi uchun sharoit yaratib berish, kutilayotgan raqib qo'llaydigan taktikalarni, uslublarni o'rganib chiqish va unga qarshi o'zining jang taktikasini ishlash va uni takomillashtirib borishga jiddiy e'tibor qaratiladi.

Shu o'rinda, sportchilarimiz misolida jismoniy tayyorgarliklari bilan bir qatorda, raqibi va uning tarafdorlari tomonidan uyushtiriladigan ruhiy bosimga bardoshli bo'lishga hamda o'zining vatanining, xalqining g'ururi, shaanini, vatanimizning bayrog'ini ximoya qilishga qaratilgan ruxiy xolatini mustaxkamlashga aloxida etibor qaratiladi. Buni muntazam ravishda unga uqtirish, u yolg'iz emasligini, butun vatandoshlari u bilan birga ekanliklarini



xis qildirish, doimiy ravishda ruxlantiruvchi soʻzlar bilan uni ruxiyatini koʻtarib turish orqali amalga oshiriladi. Eng asosiysi bu jarayonlarni amalga oshirish davrida sportchiga mativatsiya beruvchi yoʻnalishning eng tasirchan obʻekti belgilanib olinishi va koʻproq oʻshandan foydalanish tezroq va samaraliroq maqsadga erishishga sababchi boʻlishini unitmaslik kerak.

Fikrimizcha yuqoridagilarni inobatga olib, avvalo harbiy xizmatchilar va xodimlarni jismoniy va ruxiy tayyorganligini yuksaltirishga qaratilgan ishlar tizimini tartibga soluvchi yangi mexanizmlarni joriy qilishdan avval mavjud tizimdagi jarayonlarni chuqur oʻrganib chiqilishi lozim.

Milliy gvardiya boʻlinmalarida harbiy xizmatchi va xodimlarni jismoniy va ruxiy tayyorgarligini yaxshilash uchun tizimda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilgan. Xususan, shaxsiy tarkibni doimiy jismoniy va ruxiy salohiyatini yuqori darajada ushlab turish uchun Milliy gvardiya qoʻmondonining tegishli buyruqlari asosida boʻlinmalarga qabul qilinayotgan harbiy xizmatchi va xodimlarni jismoniy salohiyati talablarga javob beradigan boʻlishini taʼminlash, shaxsiy tarkib bilan belgilangan dasturlar asosida jismoniy tayyorgarlik boʻyicha mashgʻulotlarni oʻtkazib borilish, ulardan oraliq nazorat sinovlarni olib turish, sport musobaqalarini tashkillashtirib borish va gʻoliblarni ragʻbatlantirish, ruxiy tayyorgarlik boʻyicha joylardagi barcha boʻgʻin rahbarlari va boʻlinma komandirlari hamda ularning oʻrinbosarlari rejalariga muvofiq muntazam ishlarni olib borish boʻyicha vazifalarni yuklatilganligi va uni amaliyotga tadbiq etilganligi soʻzimizning isboti.

Lekin shunga qaramasdan, xozirgi kunda jaxonda yuzaga kelayotgan taxlikali vaziyat Ukraina, Belarusiya va Qozogʻistonda boʻlib oʻtgan ommaviy tartibsizliklar shuni koʻrsatmoqdaki, ushbu davlatlarda ommaviy tartibsizliklar ishtirokchilari tomonidan huquqni muxofaza etish organlariga nisbatan yangi taktikada qarshilik koʻrsatish, bunda yangi vositalardan foydalanish holatlari qayd etildi. Har bir soha borgan sari rivojlanishni talab etayotgani kabi, harbiy xizmatchi (xodim)larni jismoniy va ruxiy tayyorgarligi yoʻnalishida ham olib borilayotgan ishlarni samaradorligini oshirib borish zamon talabiga aylanib qolmoqda.

Oʻrganishlar jarayoni shuni koʻrsatadiki, amaliyotda harbiy boʻlinmalarda shaxsiy tarkibni jismoniy va ruxiy jixatdan toʻlaqonli tayyorlashga toʻsqinlik qiluvchi asosiy omillar quyidagilar boʻlishi kuzatilgan:

- shaxsiy tarkibni ruxiy jixatdan tayyorlashda olimlar tomonidan oʻrganib chiqilgan va oʻz tasdigʻini topgan yangi mexanizmlarni oʻz vaqtida amaliyotga joriy etilmayotganligi, aksariyat holatlarda bu yoʻnalishda amalga oshirilayotgan ishlarni qogʻozda qolib ketishi;

- harbiy xizmatchilarning zimmasiga yuklatilayotgan, ularga ishonib topshirilayotgan masuliyatli vazifalarni ortib borayotganligi tufayli, jismoniy



va ruxiy tayyorgarlik jarayonlariga hamda me'yorga mos ravishda dam olish uchun yetarlicha vaqt ajratishning imkoniyatini bo'lmayotganligi;

- shaxsiy tarkibni ruxiy jixatdan tayyorlash dasturlarini eskirganligi va unda aynan soxaga oid yo'nalishlarga qaratilgan holda tayyorlash tizimi o'z vaqtida amaliyotga joriy etilmayotganligi;

- ayrim bo'g'in bo'linma komandirlarining, rahbarlarining shaxsiy tarkibini ruxiy jixatdan tayyorlashi uchun yetarli darajada tajribalarini va ko'nikmalari shakillanmaganligi;

- ruxiy tayyorgarlik bo'yicha avvallari jangovor bo'linmalarda qo'llanilgan samarali usullarni takomillashtirib borishga yetarlicha e'tibor qaratilmayotganligi.

Hulosa qilib aytganda, xozirgi kunda bu kabi holatlarni oldini olish uchun harbiy xizmatchilarning ruhiy va jismoniy tayyorgarligiga jiddiy e'tibor qaratilishi lozim deb xisoblaymiz.

Mavjud muammoli masallarni yechimini topish uchun quyidagilarni taklif sifatida kiritishimiz moqsadga muvofiq deb, hisoblaymiz.

Jumladan:

- shaxsiy tarkibni jismoni saloxiyatini oshirish uchun ko'plab omillar inobatga olinishi lozimligini unitmagan holda shaxsiy tarkibni me'yor doirasida ovqatlanishi, o'z vaqtida dam olishi va belgilangan tartibda jismoniy tayyorgarlik mashg'ulotlarida jamoaviy hamda yakka tartibda shug'ullanishini nazorat tizimini takomillashtirish. Bunda, harbiy bo'linmalarining, har bir harbiy xizmatchisi (xodimi)ni jismoniy imkoniyatlarini inobatga olgan holda jismoniy mashqlar bosimini bosqichma-bosqich oshirib borish rejalarini amalda joriy etish. Oraliq nazorat sinovlarida har bir harbiy xizmatchining jismoniy elementlarni bajarishdagi sust taraflarini o'rganib chiqib, ularni yuksaltirish uchun yakka tartibda shug'ullantirish rejalariga tegishli o'zgartirish qo'shimchalar kiritib borish;

- jismoniy tarbiya, taktik, maxsus taktik va ruxiy tayyorgarlik mashg'ulotlarida xizmat yuzasidan yuklatilgan vazifalarni bajarishda qo'llaniladigan elementlar uyg'unligini ta'minlagan holda mashg'ulotlarni tashkil etish. Bunda, har bir fan dasturidagi mavzular bir davrni o'zida jadvalga muvofiq ketma ketlikda berilishi, ularning orasida ko'p vaqt uzilish bo'lib qolmasligi maqsadga muvofiq. Shuningdek ommaviy tartibsizliklarda yuzaga keladigan holatlar (*olamonning tartibsiz harakati, to'siqlarni aylanib yoki buzib o'tishga bo'lgan urinishlar, jinoyat va huquqbuzarlik sodir etib, yashirinishga urinishlari, olamon tomonidan ruxiy bosim o'tkazishga harakat qilish*)ni aks ettirgan holda ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish elementlari (*olamonning tartibsiz harakati, to'siqlarni aylanib yoki buzib o'tishga bo'lgan urinishlar, huquqbuzarlik sodir etishga bo'lgan urinishlarni to'xtatib qolish,*



sodir etganlarini qo‘lga olish, maxsus vositalarni to‘g‘ri qo‘llash va me‘yorini bilish, tinch xalq ommasini olamon tasiridan asrab qolish, yaralanganlarga birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish, evakuatsiya qilish va boshqalar)ni to‘g‘ri bajarilishiga, eng asosiysi vaziyatni to‘g‘ri baholab, amalga oshirishi lozim bo‘lgan ishlar bo‘yicha to‘g‘ri qaror qabul qila olishiga alohida e‘tibor qaratish;

- ommaviy tartibsizliklarni bartaraf etish yuzasidan amaliy mashg‘ulotlarni o‘tkazib borilishi, har bir harbiy xizmatchi o‘zi xizmatga jalb etiladigan xizmat uchastkasida unga hamkorlik qiluvchi bo‘linmalar bilan hamkorlikda ishlash mexanizmini shakillantirishi;

- shaxsiy tarkibning ish hajmi va ularga yuklanayotgan vazifalarni ilmiy asoslangan holda qayta o‘rganib chiqish, Sog‘liqni saqlash vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan olimlarning hulosalariga asoslangan holda insonning o‘z vaqtida dam olmasligi uning jismoniy, aqliy va ruxiy holatiga salbiy tasir etishini inobatga olib, me‘yoridan oshiq ish hajmini yuklatilishiga yo‘l qo‘ymaslik;

- Milliy gvardiya bo‘linmalaridagi harbiy xizmatchi va xodimlarni ruxiy tayyorgarligini yuksaltirish maqsadida, shaxsiy tarkib komandirlari uchun alohida dasturlarni ishlab chiqish. Bunda o‘zining bo‘linmasidagi shaxsiy tarkib ishonchini qozonish, komandir o‘zini lider ideal yo‘lboshchi sifatida shakillantira olish, har bir harbiy xizmatchi bilan yakka tartibda shug‘illana olish ko‘nikmasini mustaxkamlash va samarali metodlarni kiritilishi;

Inavatsion tajriba: bo‘linma komandiri o‘zining shaxsiy tarkibi oldida mavqeyini tiklab olishi uchun o‘zidan katta komandirlar bilan kelishilgan holda kombinatsiya usullaridan foydalanilishi.

- harbiy xizmatchi (xodim)larni ruhiy tayyorgarligini oshirish uchun ularni vatanparvarlik ruxida tayyorlash, sadoqat, qaxramonlik, o‘zining avlodlaridan g‘ururlanish tuyg‘ularini yuksaltirish, mashg‘ulotlar jarayonida real holatga yaqinlashtirilgan saxnalarni tashkillashtirgan holda amaliy mashg‘ulotlar o‘tkazish choralari ko‘rishi (**Horijiy davlatlarning ilg‘or tajribasi:** *kuchli tovush, o‘q va portlash ovozi, baqirish, chinqiriq va qo‘rqinchli saxnalarni namoish etish bosimi ostida topshiriqlarni bajarishga bosqichma-bosqich ko‘nikmalarini shakillantirish*);

- harbiy xizmatchi va xodimining ruxiy tayyorgarligini oshirish uchun uning ongida o‘zi xizmat olib borayotgan bo‘linma eng kuchli va obro‘li bo‘linma ekanligini, unda xizmat qilish sharaf ekanligini chuqur singdirish mexanizmni amaliyotga joriy etish shular jumlasidan.

Yuqorida ko‘tarilgan masalalarni yechimi bo‘yicha taqdim etilgan takliflarni tizimga joriy etish bilan quyidagi natijalarga erishish mumkin.

- jismoniy tayyorgarlik mashg‘ulotlarini harbiy xizmatchilar xayotiga



sogʻlom turmush tarzi sifatida singdirishga;

- har bir boʻlinma, harbiy xizmatchisini jismoniy imkoniyatlariga aniq baxo bera olish va shundan kelib chiqib, kelgusida jismoniy mashqlar bosimini bosqichma-bosqich oshirib borish rejalarini amalda joriy etishga;

- harbiy xizmatchini jismoniy va ruhiy tayyorgarligi yuzasidan oʻzining ustida ishlashga;

- jismoniy tarbiya, harbiy taktika, maxsus taktik va ruhiy tayyorgarlik mashgʻulotlarida berilayotgan bilimlarni mustaxkam harbiy xizmatchining singdirilishiga;

- harbiy xizmatchilarimizni yuzaga kelishi mumkin boʻlgan ommaviy tartibsizliklarda yuzaga keladigan kutilmagan vaziyatlarda toʻgʻri va samarali harakat qila olish koʻnikmasini tezroq yuksaltirishga;

- harbiy xizmatchilarni xar qanday xavfli topshiriqlarni bajarishda ikkilanmasdan oʻziga ishonch bilan harakatlarni amalga oshirish boʻyicha mustaxkam ruhiy xolatga ega boʻlishiga;

- komandirlari va yuqori turuvchi qoʻmondonlikka nisbatan ishonchini yanada yuqori boʻlishiga;

- harbiy xizmatchi (xodim)larni kasbiy va xayotiy koʻnikmalarini mustaxkamlashga, sogʻlom, uzoq muddatli jangovar topshiriqlarni bajarishga qodir qilib tarbiyalashga.

Hulosa qilib aytish joizki yuqorida koʻtarilgan masalalar va takliflar kelgusida Milliy gvardiya boʻlinmalari shaxsiy tarkibning jangovar salohiyatini oshirishga, shaxsiy tarkibda oʻziga nisbatan ishonch ruhini yuksaltirishga, Oliy bosh qoʻmondonimizga, xalqiga, vataniga, komandirlariga sodiq boʻlib xizmat oʻtashiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoev. Xavfsizlik kengashining yigʻilishidagi maʼruzasidan. Toshkent. <https://www.Gazeta.uz/10/01/2018>.
2. «Vzaimosvyaz nervno-psixicheskoy ustoychivosti i sklonnosti k otklonyayushchemusya povedeniyu u voennoslujaschix kontraktnoy slujby». <https://cyberleninka.ru/article/n/vzaimosvyaz-nervno-psihicheskoy-ustoychivosti-i-sklonnosti-k-otklonyayushchemusya-povedeniyu-u-voennosluzhaschih-kontraktnoy-sluzhby>. Rossiya. UDK 159.9 © Ye.O.Yermolova, O. A. Shamshikova, 2021.
3. Jangovar sharoitda shaxsiy tarkibning yuksak axloqiy – psixologik xolatini tutib turish boʻyicha ishlar. <https://uz.denemetr.com/docs/768/index-29125-1.?page=4>



4. Vikipediya svobodnaya ensiklopediya. Ukraina «Yevromaydan». <https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%95%D0%B2%D1%80%D0%BE%D0%BC%D0%B0%D0%B9%D0%B4%D0%B0%D0%BD>. 2022 yil.
5. Vikipediya svobodnaya ensiklopediya. «Protesty v Belorussii (2020—2021)». [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9F%D1%80%D0%BE%D1%82%D0%B5%D1%81%D1%82%D1%8B_%D0%B2_%D0%91%D0%B5%D0%BB%D0%BE%D1%80%D1%83%D1%81%D1%81%D0%B8%D0%B8_\(2020%E2%80%942021\)](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9F%D1%80%D0%BE%D1%82%D0%B5%D1%81%D1%82%D1%8B_%D0%B2_%D0%91%D0%B5%D0%BB%D0%BE%D1%80%D1%83%D1%81%D1%81%D0%B8%D0%B8_(2020%E2%80%942021)). 2022 yil.
6. Vikipediya svobodnaya ensiklopediya. «Mejetnicheskie konflikty v Kazaxstane».